

**PUL KREDITI SIYOSATI**

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti  
 “Raqamli Iqtisodiyot” fakulteti  
 Iqtisodiy statistika kafedrasi dotsenti  
**Akbarova Barno Shuxratovna**  
 “Statistika” yo’nalishi talabasi  
**Aminova Feruza O’ktam qizi**  
 Email:aminovaferuza95@gmail.com*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada pul-kredit siyosatining asosiy maqsadlari va yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Xususan, inflaytsion targetlash rejimi, likvidlikni jalg etish operatsiyalari hamda real foiz stavkalarining iqtisodiyotga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tijorat banklarining likvidligi va uning pul-kredit siyosati doirasidagi roli tahlil qilinadi. Maqolada Markaziy bankning iqtisodiy barqarorlikni ta’minalashdagi roli va uning asosiy vositalari yoritilib, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda pul-kredit siyosatining ahamiyati ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan.

**Аннотация**

Эта статья проанализирует основные цели и направления денежно - кредитной политики. В частности, процедуры инфляции, операции по развитию ликвидности, а также влияние реальных процентных ставок на экономику. Роль ликвидности коммерческого банка и ее денежно - кредитной политики также анализируется. Статья в статье «Роль Центрального банка в обеспечении экономической стабильности и важности денежно - кредитной политики в развитии экономики страны» была показана на научной основе.

**Annotation**

This article will analyze the main goals and directions of monetary policy. In particular, inflation procedures, the operation of liquidity development operations, as well as the impact of real interest rate rates on the economy. The role of commercial bank liquidity and its monetary policy is also analyzed. The article in the article The role of the Central Bank in ensuring economic stability and the importance of monetary policy in the development of the country's economy was shown on scientific basis.

**Kalit so’zlar:** Pul-kredit operatsiyalari, mexanizmi, bank obligatsiyasi, inflaytsion targetlash, asosiy stavka, real pul-krediti

**Kirish**

Pul-kredit siyosati – bu markaziy bank tomonidan iqtisodiyotdagi pul massasi va kreditlash jarayonlarini tartibga solish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar

majmuasidir. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, narxlar darajasini nazorat qilish hamda mamlakatdagi moliyaviy muhitni samarali boshqarishdan iborat. Markaziy bank pul-kredit siyosati orqali inflyatsiyani pasaytirish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Pul-kredit siyosati turli vositalar orqali amalga oshiriladi va iqtisodiyotning muayyan sharoitlariga qarab moslashuvchan tarzda o'zgartirilishi mumkin. Ushbu vositalar pul taklifini tartibga solish, foiz stavkalarini belgilash va tijorat banklarining kreditlash imkoniyatlarini cheklash yoki kengaytirish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi. Shu tariqa, markaziy bank pul-kredit siyosatini olib borish orqali iqtisodiyotda barqarorlikni saqlashga harakat qiladi

Mazkur ishda pul-kredit siyosatining mohiyati, asosiy maqsadlari va uni amalga oshirish vositalari batafsil yoritiladi. Shuningdek, ushbu siyosatning iqtisodiyotga ta'siri va uning samaradorligini oshirish yo'llari muhokama qilinadi.

### **Pul-kredit siyosatining maqsadi**

“O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Markaziy bank pul-kredit siyosatini narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadidan kelib chiqqan holda ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Narxlar barqarorligi past va barqaror inflyatsiya darajasini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5877-sonli “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan inflyatsiya bo'yicha doimiy maqsad (target) 5 foiz etib belgilangan va ushbu maqsadga erishish vazifasi Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan. Markaziy bank tomonidan inflyatsion targetning ta'minlanishi aholi va tadbirkorlarning daromadlari va jamg‘armalarining xarid qobiliyatini saqlaydi, ularga uzoq muddatli xarajatlarini rejalashtirish imkonini beradi hamda barqaror va inkyuziv iqtisodiy o'sishga qulay sharoitlarni yaratadi. Shu bilan birga, doimiy past inflyatsiya mamlakatga barqaror investitsiyalar kirib kelishiga, inflyatsiya mukofotining kamayishi evaziga foiz stavkalarining pasayishiga, milliy valyutaga bo'lgan ishonchning ortishi sharoitida iqtisodiyotning tashqi xatarlarga ta'sirchanligining pasayishiga xizmat qiladi.

Samarali pul-kredit siyosati iqtisodiyotning salohiyatidan keskin va davomiy og'ishining oldini olish va salbiy ta'sirlarni yumshatish choralarini ko'rish imkoniyatlarini yaratadi.

### **Inflyatsion targetlash rejimi**

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2020 yildan boshlab pul-kredit siyosatini inflyatsion targetlash rejimi doirasida olib bormoqda. Pul-kredit siyosatining inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi – targeti

belgilanadi hamda Markaziy bankning barcha xatti-harakatlari inflyatsiyaning ushbu target darajasi atrofida bo‘lishiga qaratiladi.

### **Pul-kredit siyosatining asosiy tamoyillari**

1. Inflyatsiya bo‘yicha target belgilanadi va barcha pul-kredit siyosati choralari ushbu targetga erishishga qaratiladi;
2. Markaziy bankning asosiy stavkasi pul-kredit siyosatining asosiy instrumenti hisoblanadi;
3. Pul-kredit siyosati operatsion mexanizmi Markaziy bank tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va takomillashtirib boriladi;
4. Pul-kredit siyosatiga oid qarorlar keng qamrovli makroiqtisodiy tahlil va prognozlarga asoslanadi;
5. Markaziy bank valyuta siyosatini erkin suzuvchi valyuta kursi rejimida amalga oshiradi;
6. Pul-kredit siyosati shaffof tarzda olib boriladi va har bir qaror keng jamoatchilikka bat afsil tushuntiriladi.

### **Pul-kredit siyosati asosiy operatsiyalari**

Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadi bo`lgan iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta`minlashda transmission mexanizm foiz kanali ta`sirchanligini oshirish maqsadida pul-kredit operatsiyalari amalga oshiriladi. Pul-kredit operatsiyalari bank tizimi umumiy likvidligini tartibga solish orqali qisqa muddatli foiz stavkalarini boshqarishga yo`naltirilgan. Markaziy bank tomonidan ushbu operatsiyalar **foiz koridori mexanizmi** asosida amalga oshiriladi va pul bozori foiz stavkalarining asosiy stavkaga nisbatan ±2 foizlik koridorda shakllanishini ta`minlaydi.

#### **Likvidlikni taqdim etish operatsiyalari**

1. **REPO auksioni** – bu kredit tashkilotlaridan qimmatli qog`ozlarni markaziy bank tomonidan sotib olish va keyinchalik ularni oldindan belgilangan narxda ma`lum muddatdan keyin sotish bo`yicha ikki tomonlama bitim.

**Markaziy bank REPO stavkasini** – asosiy stavka darajasida belgilaydi – bu o`z o`rnida REPO operatsiyalari bo`yicha taqdim etilgan mablag`lar uchun narx hisoblanadi. Davlat qimmatli qog`ozlari va Markaziy bank obligatsiyalari oldisotdi predmeti hisoblanadi. Ma`lumot uchun “O`zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog`ozlari bilan REPO bitimlarini tuzish va ijro etish tartibi to`g`risidagi” Nizom

**Valyutaviy SVOP auksioni** – oldindan belgilangan valyuta kurs (forward operatsiyasi) bo`yicha ma`lum vaqtdan keyin teskari operatsiyani amalga oshirish sharti bilan ikki tomonlama valyuta ayirboshlash operatsiyasi (spot operatsiyasi). Forward kursini hisoblashda milliy valyutaning qiymati sifatida

Markaziy bankning asosiy stavkasidan foydalilanadi. Bitim predmeti xorijiy valyuta hisoblanadi. Overnayt REPO va Overnayt valyutaviy SVOP operatsiyalari – bir kun muddatga “asosiy stavka + 2%” stavkada muntazam qo`llaniladigan operatsiyalar.


**Likvidlikni jalb etish operatsiyalari.** Markaziy bank obligatsiyasi – obligatsiya egasi tomonidan belgilangan tartibda daromad olish huquqini beruvchi Markaziy bank tomonidan elektron shaklda emissiya qilinadigan qimmatli qog`ozlar. Ma`lumot uchun “O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalar chiqarishi va muomalada bo`lishi to`g`risidagi” Nizom

Depozit auksionlari – Markaziy bankning tijorat banklaridan depozitlarga asosiy stavka darajasida mablag`larni jalb qilish operatsiyalari. Ushbu auksionlar 2022 yilning mart oyidan boshlab “to`liq qoplanadigan o`zgarmas foiz stavkali” operatsiyalar (fixed rate – full allotment) ko`rinishida amalga oshiriladi.


Asosiy stavka pul-kredit siyosatining asosiy instrumenti bo`lib, inflyatsiyaning barqaror 5 foizlik targeti doirasida shakllanishini ta`minlash uchun zarur bo`lgan pul-kredit sharoitlarini belgilab beradi. Asosiy stavka banklararo pul bozoridagi qisqa muddatli pul narxini (UZONIA) belgilaydi, ya’ni tijorat banklarining bir-birlariga overnayt shartlarda qarz berish va qarz olish foiz stavkasining maqsadli ko`rsatkichi hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2023-yilda rivojlanish qat’iy belgilangan sharoitlarda global inflyatsiya darajasida sekinlash, xavfsizlikka ixtisoslashgan faolliklarning pasayishi sharoitida rivojlanmoqda. Yuqori fiskal rag`batlantirilishlar, investision faollikning ortishi, kreditlash tezligining tezlashishi, pul ishlab chiqarishlari va hajmining o’tgan yiliga yuqori sezilarli pasayishi hamjamiyat sharoitida o’z aksini topdi.

Bu esa, 2022-yilda ishlab chiqarilgan “Pul-kredit kreditlarining 2023-yil va 2024-2025-yillar davriga mo’ljallangan asosiy yo‘nalishlari”da makroik iqtisodiy rivojlanishning prognoziga ko‘ra, bir vaqtning o‘zida bir vaqtning o‘zida ishlab chiqilgan vaziyatga bog‘liq.




Манба: Марказий банк.



Манба: Статистика агентлиги.


**Yakuniy xarbiy geosiyosiy dinamikasi** o'tgan yilida boshlangan geosiyosylarning ichki ishlab chiqarish vositalari bosqichma-bosqich pasaymoqda. Xususan, yurtimizga kirib kelayotgan pullarimizi hajmi joriy yilga o'tgan yilga katta sezilarli pasaygan bo'lsa-da, o'zining uzoq saqlanib qolgan trendiga qaytdi (1.1.1-rasm). Xususan, 2023 yil yanvar sentabr oylarida jami 8,4 mlrd. dollarga teng pul mablag'lari kirib kelgan bo'lib, bu 2022 yilning mos davriga 33,7 foizga kamroknii tashkil etildi.

**Biroq tiklanish bilan 2021 yilning mos davriga nisbatan** 45,5 foizga yukori shakllandi. 2023-yilning ikkinchi choragida ish haqi va pensiyalar chegarasida 7 foizga oshirish belgilangan hududdagi O'rta oylik ish joyi III chorakda 4,4 mln. so'mga yetdi va o'tgan yilning mos davriga 18,1 foizga oshdi. Ushbu davrdagi daromadlari real umumiy daromad olgan yilning mos davriga 3,5 foizga o'sdi (1.1.2-rasm). O'zining navbatdagi yili boshidan boshlashning real daromadlari o'sishida ijobiy dinamikaning saqlanishini saqlab qolishning faolligini qo'llab-quvvatlab-quvvatlantirishga xizmat qiladi.


**1.1.3-расм. Банкларо транзакциялар**

—Транзакциялар сонининг ўзгариши, ўтган йилнинг мос ойига нисбатан  
—Транзакциялар хаджмининг ўзгариши, ўтган йилнинг мос ойига нисбатан


Манба: Марказий банк.

**1.1.4-расм. Савдо ва пуллик хизматлардан тушумлар**

—Накд пул (трлн. сүм)  
—Терминал (трлн. сүм)

**1.1.5-расм. Кўчмас мулк олди-сотди битимлари сони, минета**

Манба: e-номариус.

**1.1.6-расм. Чакана ва улгуржи савдо ҳажми ўзгариши, кумулятив, фоизда**

Манба: Статистика агентлиги.

Yuqori yurtaro tray faollik banklar 9 oyida o'tgan yilning mos davriga 35,8 foizga ko'p bo'limgan (1.1.3-rasm). 2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida savdo va pullik xizmatl ardan daromadlar hajmi o'tgan yilning mos davriga 27,8 foizga oshdi va barcha o'yinlar davomida ijobjiy o'sish saqlashchilarni qayd etishdi Shuningdek, faol davrda ko'chmas mulk oldi-so'z 259 ming yillik ishlab chiqarish, 7,8 foizga oshdi. Ajratlangan ipoteka kreditlari hajmi 17,8 foizga oshdi va ko'chmas mulk bozorida yukori talab dinamikasi saqlanib qoldi (1.1.5-rasm).

Bunda kichika va ulgurji savdo hajmining mos ravishda 7,0 foiz va 10,5 foizga oshishi hamjamiyatda yalpi tajribasi talabi yukori shakllanganligini saqlab qoldi. Ushbu davrda chakana va ulgurji tovar ayirboshlash hajmi mos ravishda 7,0 va 10,5 foizga o'sdi, bu esa yalpi savdoning yuqori darajasidan dalolat beradi.

Real pul-kredit sharoitlari indeksi Iqtisodiyotdagagi pul-kredit sharoitlarini miqdoriy baholash uchun markaziy banklar tomonidan real pul-kredit sharoitlari (RPKSH) indeksi hisoblanadi. U ikkita muhim moliyaviy ko'rsatkichlardan tashkil topgan: real foiz stavkasi (RFS) tafovuti va real samarali almashuv kursi (RSAK) tafovuti. RFS tafovuti ratsional inflyatsion kutilmalar (iqtisodiy model yordamida markaziy bank tomonidan hisoblangan inflyatsiyaning 6 oydan keyingi prognozi) asosida hisoblangan joriy davrdagi RFS va muvozanatl (neytral) RFS o'rtasidagi farqini anglatadi. Neytral real foiz stavkasi inflyatsiyani belgilangan target darajasida

barqarorlashtiradigan va iqtisodiyotni o‘z potensialida o‘sishini ta’minlaydigan (barcha iqtisodiy siklik shoklar yo‘q bo‘lganda) uzoq muddatli real foiz stavkasi hisoblanadi.

Ijobiy RFS tafovuti iqtisodiyotda qat’iy pul-kredit sharoitlari, salbiy RFS tafovuti esa yumshoq pul-kredit sharoitlari yuzaga kelganini bildiradi. Buning sababi RFS tafovuti ijobiy bo‘lganida joriy real foiz stavkasi o‘zining neytral darajasidan yuqori shakllangan bo‘ladi va bu iqtisodiy agentlarni jamg‘arma qilishga undab, ularning iste’mol talabini kamaytiradi va shu orqali narxlarga bo‘lgan oshiruvchi bosimni pasaytiradi va aksincha.


RFS tafovutining nolga tengligi pul-kredit sharoitlari neytral fazada ekanligini anglatadi. RSAK tafovuti RSAK indeksi o‘zining uzoq muddatli trendidan (muvozanatlari qiymati yoki inflyatsiya uchun neytral qiymat) necha foiz chetlashganini anglatadi. Umuman olganda, har qanday real iqtisodiy ko‘rsatkichni trend va tafovut qismlariga ajratish mumkin.

Trendlar uzoq muddatli o‘zgarishlarni, tafovut esa biznes siklidagi dinamikalarni (ko‘rsatkichning o‘z trendidan chetlashishini) qamrab oladi. Trend va tafovutni bevosita statistik o‘lchab bo‘lmagan uchun ular matematik filtrlar yordamida qaralayotgan ko‘rsatkich dinamikasidan kelib chiqib baholanadi.

## **PUL-KREDIT SIYOSATINING 2024 YIL VA 2025-2026 YILLAR DAVRIGA MO’LJALLANGAN ASOSIY YO’NALISHLARI**

Pul-kredit sharoitlari va pul-kredit siyosati istiqboli Inflyatsiya darajasi 5 foizlik maqsadli ko‘rsatkichigacha pasayib, uning keskin o‘sishi bo‘yicha xatarlar bartaraf etilgunga qadar Markaziy bank iqtisodiyotda nisbatan qat’iy pul-kredit sharoitlarini ta’minlash choralarini davom ettiradi.

### **1.4.1-rasm. Real pul-kredit sharoitlari indeksi**




Xususan, iqtisodiyotda ijobiy real foiz stavkalarini ta’minlash orqali real pul-kredit sharoitlari indeksining (1-havola) mo’tadil bo‘lishi chora-tadbirlari ko‘riladi (1.4.1-

rasm). Joriy yilning ikkinchi yarmidan yuqori real foiz stavkalari yuzaga kelib, kelgusi prognoz davrida ularning ijobiy tafovuti ta'minlanishi, o'z navbatida, jamg'arish faolligini qo'llab-quvvatlaydi hamda iste'mol talabini jilovlash orqali inflyatsiyaning prognoz trayektoriyasida shakllanishiga va 2025-yilda belgilangan targetigacha pasayishiga zaruriy shart-sharoitlar yaratadi


Pul-kredit sharoitlari qat'iylik darajasi saqlab qolinishi natijasida kelgusida ham kreditlash hajmining o'sishi mo'tadil bo'lishi va depozitlarning yuqori o'sish sur'atlari davom etishi yalpi talabni muvozanatlashtiruvchi va monetar omillarning inflyatsiyaga ta'sirini kamaytiruvchi xususiyatga ega bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan omillarni hisobga olib, o'rta muddatli istiqbolda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadida Markaziy bank boshqaruvi asosiy stavkani o'zgarishsiz, 13,5 foiz darajasida qoldirish to'g'risida qaror qabul qildi. O'rta muddatli istiqbolda Markaziy bank inflyatsiyaning 5 foizlik targetigacha barqaror pasayib borishi uchun pul-kredit sharoitlarining yetarli darajada qat'iy shakllanishini ta'minlab boradi.

**2.2.9-rasm. Milliy valyutada ajratilgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalar, yillik**



**2.2.10-rasm. Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar qoldig'i o'zgarishi, yillik foizda**




Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Milliy valyutada ajratilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari mart oyida 23,6 foizni tashkil etib, dekabr oyi ko'rsatkichiga nisbatan 0,4 foiz bandga pastroq shakllandi. Bunda, uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkalari o'tgan chorakdagi o'sishdan so'ng joriy yilning I choragida pasayish trayektoriyasiga o'tishi kuzatilmoqda (2.2.9-rasm).

Ushbu davrda iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarsiz (0,2 foizga) oshib, 53,7 trln. so'mni tashkil etdi va kreditlarni so'ndirish darajasi 89,8 foizga yetdi. Kreditlarning qaytuvchanlik darajasi oshib bormoqda va buning natijasida, kredit qo'yilmalari qoldig'i o'sishi sekinlashib yil boshidan 0,9 foizga va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18 foizga oshgan (2.2.10-rasm).


Kredit bozoridagi ushbu holat avvalgi davrlardan yig'ilgan kredit majburiyatlarining bosqichma-bosqich uzoq muddatli o'sish trayektoriyasiga qaytayotganligi bilan izohlanishi mumkin. Bu esa kelgusida yalpi talabni muvozanatlashtirib, inflyatsiyaga monetar omillar ta'sirini kamaytirib boradi. Biroq kreditlash hajmlari o'sishi, asosan, chakana kreditlarga to'g'ri kelib, yuqori fiskal rag'batlantirishlar bilan bir qatorda joriy iste'mol talabini qo'llab-quvvatlashda davom etmoqda.

**2.2.11-rasm. Depozitlar hajmi o'sishi va daromadliligi, yillik foizda**



**2.2.12-rasm. Pul-kredit va moliyaviy sharoitlar, o'tachalangan foizda**

(\*qisqa muddatli kredit va depozit bozoridagi o'tacha foiz stavkalar)



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Tizimli xatarlarni oldini olish maqsadida ayrim turdag'i chakana kreditlarning yuqori o'sishini jilovlashga qaratilgan makroprudensial choralar natijasida aholiga ajratilgan kreditlarning o'sishi sekinlashishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, o'sish sur'atlari yuqoriligidcha qolmoqda (2.2.10-rasm). Ichki moliyaviy resurslarga bo'lgan yuqori talab ta'sirida milliy valyutadagi muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalari joriy yilning I choragida ham yuqoriligidcha saqlanib qolib (dekabr oyiga ko'rsatkichidan +0,2 f.b. oshib, martda 19,9 foizni tashkil qildi), depozitlar hajmi o'sishini tezlashishi kuzatildi (2.2.11-rasm).

2024-yilning 1-aprel holatiga depozitlarning dollarlashuv darajasi 29,8 foizni (yil boshida 28,6 foiz) tashkil etgan bo'lsa, kreditlarning dollarlashuvi 43,1 foizni tashkil etdi (yil boshida 43,6 foiz). Shu bilan birga, so'nggi choraklarda milliy valyutaning AQSH dollariga nisbatan almashuv kursining yillik o'zgarishi 8,5-9,5 foiz atrofida shakllanib, yuqori bozor stavkalari bilan ta'minlanayotgan qat'iy sharoitlarni birmuncha yumshatilishiga olib kelmoqda (2.2.12-rasm).

Pul-kredit siyosati operatsion mexanizmiga kiritilgan o'zgartirishlar Pul-kredit siyosatining operatsion mexanizmini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, bank tizimi likvidligini samarali tartibga solish va tijorat banklarining o'z likvidligini boshqarish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va

konsalting kompaniyalari tavsiyalari asosida operatsion mexanizmga bir qator o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan, Markaziy bank boshqaruvining qarori bilan 26-fevral sanasidan boshlab banklararo pul va REPO bozorlarining bank to‘lov kuni yopilganidan so‘ng 30 daqiqa davomida ochiq bo‘lishini ta’minlash hamda Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalaridan bank to‘lov kuni yopilganidan so‘ng 1 soat davomida foydalanish imkoniyati yaratildi.

Bunda, tijorat banklari uchun to‘lov kuni yakunlanganidan so‘ng pul bozorlarida umumiy likvidlikni qayta taqsimlash, so‘ngra Markaziy bank overnayt operatsiyalariga murojaat qilish imkoniyati yaratildi. Ushbu o‘zgartirishlar likvidlikni boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari, tijorat banklariga likvidlik taqdim etishga mo‘ljallangan kun davomidagi kredit instrumenti hamda valyuta garovi asosidagi overnayt va 1 haftagacha bo‘lgan kredit auksionlari joriy etildi. Bu banklardagi likvidlik uzilishlarini oldini olishga va to‘lov tizimining uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Pul-kredit siyosati operatsiyalariga kiritilgan o‘zgartirishlar asosida “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining operatsion mexanizmi” va “Markaziy bankning pul bozoridagi operatsiyalarini amalga oshirish tartibi”ga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar mazkur qaror talablariga muvofiqlashtirildi.

### **Xulosa**

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosatini takomillashtirish doirasida qabul qilingan chora-tadbirlar mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. So‘nggi choraklarda milliy valyutaning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi 8,5-9,5 atrofida shakllanib, bu bozor qat’iyligini ta’minlagan holda likvidlik boshqaruviga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Pul-kredit siyosatining operatsion mexanizmi xalqaro moliya institutlari va konsalting kompaniyalari tavsiyalari asosida yangilanib, bank tizimini samarali tartibga solish va tijorat banklari uchun likvidlik boshqarish jarayonlarini soddallashtirish maqsad qilingan. Xususan, banklararo pul va REPO bozorlarining ish vaqtin uzaytirilib, Markaziy bank tomonidan pul bozori operatsiyalari uchun qo‘sishma vaqt belgilandi.

Tijorat banklarining likvidligini ta’minlash maqsadida overnayt va qisqa muddatli (1 haftagacha) kredit auksionlari joriy qilindi. Ushbu choralar banklararo bozorda umumiy likvidlikni qayta taqsimlash va moliya tizimining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, joriy qilingan o‘zgarishlar mamlakat pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish, moliyaviy institutlar barqarorligini ta’minlash va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, kelgusida bank tizimi barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti – [https://cbu.uz](h
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi – [https://lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari – [<https://president.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi – [<https://mineconomy.uz>
5. xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon banki (WB) ma'lumotlari – [<https://imf.o>, [<https://worldbank.org>
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi – [ht<https://stat.uz>